

Xali'q bilimlendiriw ministrliđi



**Bekturdiev Qadirbai
Bekbosinovsh**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq talimi vaziri

Manzil: 230105, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi 62 uy
Telefon: 0 (361) 222-24-37
E-mail: Mno.rk@exat.uz
Qabul kunlari: Duyshenbi ham sarshenbi kunleri soat 10:00 - 12:00



**Usnatdinova Jumagul
Sharapovna**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq talimi vaziri o'rinbosari

Manzil: 230105, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi 62 uy
Telefon: 0 (361) 222-98-30
E-mail: Mno.rk@exat.uz
Qabul kunlari: Sarsenbi ham piyhenbi kunleri soat 10:00 - 12:00

Қорақалпоғистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ходимлари ва таълим муассасаларининг раҳбарларининг лавозимлари бўйича бажариши лозим бўлган вазифалари тақсимоги

Халқ таълими вазири

- Қорақалпоғистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг Ҳайъат кенгаши раиси;
- Республика халқ таълими тизимига умумий раҳбарликни амалга оширади;
- Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон Республикаси Конституцияси, “Таълим тўғрисида”ги, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”, “Давлат тили ҳақида”ги Қонунларнинг, Ўзбекистон Республикаси Президенти ва ҳукумат фармони, Вазирлар Маҳкамасининг қарор ва фармойишларининг, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва Вазирлар Кенгаши қарор ва фармойишларининг ҳам да Ўзбекистон Халқ таълими вазирлигининг қарор ва буйруқларининг ижросини таъминлайди ва назорат қилади;
- Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг раҳбар идоралари билан алоқани йўлга қўяди, халқ таълимида ягона давлат сиёсатини ишлаб чиқилишида иштираётган этади ва ижросини назорат қилади;
- Янги мактаблар, мактабгача, мактабдан ташқари таълим муассасалари ҳамда ўқув комплексларини ташкил қилиш юзасидан тақлифларни кўриб чиқади;

- Вазирлик номенклатурасига кирувчи ходимлар билан меҳнат шартномаларини тузади ва бекор қилади, уларни рағбатлантириш ва интизомий жазо қўллаш масалаларини кўриб чиқади ва ҳал этади;

- Юқори ташкилотлардан келган ҳужжатлар билан ишлайди, ўз ваколати доирасида қарор ва буйруқлар қабул қилади;
- Туман (шаҳар) Халқ таълими бўлимларининг амалдаги қонунларга хилоф равишда қабул қилган қарор ва буйруқларини ваколати доирасида бекор қилади;
- Вазирликга келган хат ва ҳужжатлар, фуқароларнинг ариза ва шикоятларини кўриб чиқади, вазирликнинг тегишли бўлимлари томонидан уларнинг ўрганилиши ҳамда қонунда белгиланган муддатларда жавоб берилишини назорат қилади, ҳафтанинг дуйшанба ва саршанба кунлари фуқароларни шахсий масалалари бўйича қабул қилади;
- Чет эл ва МДХ давлатлари билан ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш бўйича ташкилий ишларга раҳбарлик қилади ва уларнинг вакилларини қабул қилади;
- Қорақалпоғистон Республикаси «Ёшлик» кўнгилли спорт жамияти кенгаши раиси.

Вазир ўринбосари

- Мактабгача, мактабдан ташқари ва умумий ўрта таълим, муассасалари, меҳрибонлик уйлари, мактаб-интернатлар ва ёрдамчи мактабларда таълим ва тарбия жараёнининг ташкил этилишига умумий раҳбарлик қилади;
- Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12 январдаги 2-сонли қарорига мувофиқ вазирликда ижро интизомини назорат қилади;
- Ўзбекистон, Республикасининг «Таълим тўғрисида», «Давлат тили тўғрисида»ги қонунларини, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури», «Лотин ёзувига асосланган ўзбек(қорақалпоқ) алифбосини жорий этиш тўғрисида»ги дастурларнинг ижро этилишини назорат қилади;
- умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг фанлар бўйича билимлар беллашувини, фан олимпиадалари ҳамда таълим жараёнига оид кўрик-танловларни ўтказишга раҳбарлик қилади;
- таълим муассасаларини дарсликлар, ўқув-методик адабиётлар, ўқув ҳужжатлари ва ўқув кўргазмалари қуроллар билан таъминланишини мувофиқлаштиради ҳамда назорат қилади;
- умумтаълим фанларининг ўқитилишини, ихтисослаштирилган мактаб ва синфлар, куни узайтирилган гуруҳлар ташкил қилинишини мувофиқлаштиради;
- таълим муассасаларини, раҳбар ва педагог ходимларни аттестациядан ўтказишни, малака ошириш ва қайта тайёрлашни ташкил этиш, илғор педагогик тажрибаларни оммалаштириш, уларни тарғибот қилишни мувофиқлаштиради;
- умумтаълим муассасаларида тажриба-синов ишлари олиб борилишини мувофиқлаштиради, бу йўналишда тегишли бўлимлар ишларига раҳбарлик қилади;
- чет эл фуқаролари фарзандларини мактабларга қабул қилиш ва ўқувчиларни чет элга ўқишга юборишни ҳамда настирфикация комиссияси фаолиятини мувофиқлаштиради;
- таълим муассасаларида «Соғлом авлод учун» дастурининг бажарилиши, тиббий хизмат кўрсатиш, ўқувчиларнинг овқатланишини ташкил этилишини мувофиқлаштиради;
- мактаб ўқувчиларининг муассасалар уставига мувофиқ мактаб формаси, ўқув қуроллари билан таъминланишини назорат қилади;
- умумтаълим мактаблари ўқувчиларини синфдан-синфга кўчириш, битирувчиларнинг давлат аттестациялари бўйича назорат ва раҳбарликни амалга оширади;
- қатъий назорат қилинувчи, маълумот тўғрисидаги ҳужжатларни сақлаш, тарқатиш ва улар бўйича мактаб ҳужжатларининг тўғри юритилишини мувофиқлаштиради;
- тегишли масалалар бўйича фуқароларнинг хатлари, ариза ва шикоятлари билан ишлайди, шахсий масалалар бўйича фуқароларни қабул қилади;
- хайъат кенгашига киритилган масалалар бўйича ҳужжатларнинг сифатли ва ўз муддатида тайёрланишини таъминлайди;

Шунингдек:

- умумий ўрта, мактабгача таълим ва дарсликлар бўлими;
- маънавий-ахлоқий тарбия ва спорт бўйича бош мутахассиси;
- Республика ўқув-методика маркази;
- давлат таълим стандартлари мониторинги бошқармаси;
- ташхис маркази;
- Қорақалпоғистон Республикаси Халқ таълими педагог ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти билан халқ таълими муассасалари фаолиятини методик таъминлаш ва ташкил этиш туман (шаҳар) бўлимлари билан биргаликдаги фаолиятини мувофиқлаштиради ва назорат қилади;
- ҚР ХТВ иш режасидаги ўзига юклатилган масалаларнинг бажарилишини назорат қилади;
- ҳорижий мамлакатлар ва МДХ давлатлари билан олиб бориладиган ҳамдўстлик алоқаларини ташкил этади ва мувофиқлаштиради.

Қорақалпоғ'истон Республикаси Халқ та'лими вазирлигининг асосий вазифалари ва фаолияти yo'nalishlari:

- maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, pedagog kadrlarning, ayniqsa boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining malakasini va kasb darajasini oshirish;
- umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarini, har tomonlama rivojlangan va mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan shaxsni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan maktabgacha va maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mamlakatning taraqqiyoti va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan milliy mustaqillik g'oyalarini amalga oshirish;
- idoraviy bo'ysunushidan va mukhlilik shakllaridan qat'i nazar, maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga metodik rahbarlik qilish;
- maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim uchun o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodlari yaratilishi va nashr etilishini tashkil etish;
- idoraviy mansub ta'lim muassasalarida moddiy-texnik shart-sharoitlarning yanada mustahkamlanishini ta'minlaydigan normativ baza yaratish, jamiyat va davlat manfaatlarini qoniqtiradigan ta'lim sifati va mazmunini oshirish;
- tizimli asosda pedagog kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish, jamiyatda ta'lim xodimlarining ijtimoiy maqomini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Bugungi kunda ta'lim sohasi ijtimoiy hayotning ajralmas tarkibiy qismi, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotning istiqbolini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois mustaqil O'zbekistonimizda bugungi yoshlar va kelajak avlod manfaatlarini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Mustaqillik davrida mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi", Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi, bolalar va xotin-qizlar sporti, bolalar musiqasi va san'atini rivojlantirishga doir va ta'limning huquqiy-me'yoriy hujjatlarini belgilovchi boshqa hujjatlar qabul qilinib kelinmokda.

1997 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan qabul kilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturining natijalari bugungi kuni ta'lim sohasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Milliy dastur davlatning ustuvor siyosatiga aylandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyatida BARKAMOL ShAXS, ya'ni ma'nau etuk inson - o'z kasbining mutaxassisini tarbiyalash turadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmoni va u asosida qabul kilingan 2004 yil 9 iyuldagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi 321-sonli qarori bilan belgilab berilgan 5 ta ustuvor yo'nalish doirasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib borildi. "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi"ning qabul qilinishi munosabati bilan Respublikamizning barcha joylarida amalga oshirilgan qurilish-ta'mirlash ishlari ta'limning mazmunini oshirishga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Yuqorida kayd etilgan qaror asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha dasturga 2004-2009 yillar davomida Respublika bo'yicha jami 652 ta maktab kiritilib: shundan 36 ta maktab binosi yangidan qurildi, 252 ta maktabda kapital rekonstruksiya, 216 ta maktabda kapital va 148 ta maktab binosida joriy ta'mirlash ishlari olib borildi hamda ushbu maqsadlar uchun 109,6 mlrd so'mdan ortiq mablag'lar sarflandi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda Pq-1668-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012 yil Investitsiya dasturi to'g'risida"gi qarori asosida Respublikamiz bo'yicha jami 21392 o'quvchi o'ringa mo'ljallangan 37 ta maktabda, shu jumladan, 5732 o'quvchi o'ringa mo'ljallangan 9 ta maktabda kapital rekonstruksiya, 15660 o'quvchi o'ringa mo'ljallangan 28 ta maktabda mukammal ta'mirlash ishlari olib borildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Respublikamizning Amudaryo (216 o'rinli) va Kegayli (80 o'rinli) tumanlarida yangi maktablar qurilishi tugallandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 fevraldagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 50-sonli qaroriga muvofiq Respublikamizda jami 17 ta, jumladan 1 ta Respublika hamda 16 ta shahar va tumanlarda "Barkamol avlod" bolalar markazlari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 12 maydagi 07G'1-91-sonli bayoni bilan "2011-2014 yillarda "Barkamol avlod" bolalar markazlarini tashkil etish bo'yicha manzilli dastur" tasdiqlandi. Ushbu bayon asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida 2011 yilda Taxiotosh va Nukus shahar "Barkamol avlod" bolalar markazlari ta'mirlanib, foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 2012 yilda 4 ta inshootda, Respublika "Barkamol avlod" markazi, Shumanay, Beruniy, Ellikqal'a tumanlari "Barkamol avlod" markazlarida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. "Mustahkam oila yili" davlat dasturi asosida o'quvchi yoshlarning yozgi ta'limni sarmazmun tashkil etish, ularni sog'lomlashtirish maqsadida respublikamizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Respublika bo'yicha joriy yilda Kasaba uyushmalari mablag'lari, mahalliy hokimiyatlar, "Mahalla" jamg'armasi va homiyalar hisobidan 6 ta statsionar oromgohlarda 3470 nafar (103%), 14 ta maktab qoshidagi kunduzgi oromgohlarda 3940 nafar (101,5%), jami 7410 nafar (102,2%) bola dam oldirildi. Shuningdek, Nukus shahridagi "Yosh avlod" dam olish oromgohida Vazirlar Kengashining maxsus bayoni bilan 100 nafar bola qo'shimcha ravishda dam oldirildi. Shuningdek, Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Jizzax va qashqadaryo viloyatlarida respublikamizdan 2700 nafar bolaning mazmunli dam olishi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2012 yil 3 avgustdagi 01-08G'9-08G'458-sonli bayoni asosida Taxiotosh shahridagi "Oydin yo'l" oromgohida Ichki ishlar vazirligi profilaktik hisobida turuvchi 100 nafar voyaga etmaganlar uchun harbiy-sport sog'lomlashtirish oromgohi tashkil etildi. Oromgohda bolalarning bo'sh vaqtlarini sarmazmun o'tkazish maqsadida turli madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari muntazam ravishda o'tkazib borildi. Shuningdek, "Bilimlar bellashuvi"ning 3-bosqichida sovrinli o'rinlarni egallagan va yuqori natijaga erishgan 42 nafar o'quvchi Toshkent viloyati Bustonliq tumani "Kuyoshi" oromgohida dam olishdi. Har yili maktab o'qituvchilari va o'quvchilari orasida har xil ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, fan olimpiadalari va bellashuvlar o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi miqyosida 2012 yil 23-27-aprel kunlari o'tkazilgan "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi-2012" ko'rik-tanlovning III bosqichida Xo'jayli tumani 71-sonli maktabning Nemis tili fani o'qituvchisi Sarieva Gulmira sovrinli 3-o'rinni va ushbu tumandagi 23-sonli maktabgacha ta'lim muassasining tarbiyachisi Bazarbaeva Zumrad "Yil tarbiyachisi 2012" ko'rik-tanlovida qatnashib 3-o'rinni egallashga muvassar bo'ldi. 2012 yilning 18-19 may kunlari Toshkent shahrida "Yilning eng yaxshi iqtidorli, ijodkor yosh ixtirochisi" Respublika ko'rik-tanlovida Respublika "Barkamol avlod" bolalar markazining "Aviamodel" to'garagi a'zosi Oralbaev Janibek II o'rinni egallab, qimmatbaho sovg'alar va fahriy yorliq bilan taqdirlandi. 2012 yil 23-26-may kunlari Navoiy shahrida umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan "Umid nihollari-2012" sport musobaqalarining final bosqichida sportning 12 turi bo'yicha jami 48 nafar sportchi qatnashdi. Musobaqa yakunida 3 nafar sportchimiz kumush va 9 nafar vakilimiz bronza medallari sohibi bo'lishdi. 2012 yil 14-26 iyul kunlari oralig'ida sportning basketbol turidan Nukus shahri 1-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabi qizlar jamoasi va badiiy gimnastika turidan 2-sonli respublika ixtisoslashtirilgan sport maktabi jamoasi Germaniya davlatida bo'lib o'tgan festivalda sovrinli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Manzil: Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi 62 uy
Indeks: 230100
Telefonlar: (8-361) 222-24-37, 222-24-63, 222-94-98
Faks: (8-361) 222-98-30
Ishinch telefoni: 2222429
E-mail: r.matqurbanov@exat.uz, qqresxtv@exat.uz
Veb-sayt: kkedu.uz

Ko'rip shi'g'i'ldi:

Izlew

- 🏠
- 🏢
- ✉

- [Ministrlar Ken'esi](#)
- [Statistikaliq ha'm analitikaliq ma'gliwmatlar](#)
- [Ministrliklar ha'm vedomstvolar](#)
- [Qala ha'm rayon ha'kimlikleri](#)
- [Hu'jjetlar](#)
- [Respublika miymanlarina](#)
- [Elektron hu'kimet](#)
- [Interaktiv ma'mleketlik xi'zmetler](#)